

**Xo'jaobod tuman axborot-kutubxona  
markazi  
axborot-bibliografiya xizmati**

**O'zbekiston xalq yozuvchi O'lmas  
Umarbekov tavalludi (1934 – 1994) 90 yilligi  
munosabati bilan “Teatrga oshufta adib”  
esdalik**



**Xo'jaobod 2024**

Atoqli adib va dramaturgiya O'lmas Umarbekov juda ko'plab kitobxonlar-u, tomoshabinlar mehrini qozongan serqirra ijodkordir.

O'zbekiston xizmat ko'rsatgan sa'nat arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchi, iste'dodli adib O'lmas Umarbekov o'nlab hikoyalar, qissalar, romanlar, dramatic asarlar mualifidir.U o'z asarlarida xoh u hikoya, xoh qissa yoki roman bo'ladimi, xoh sahna asari bo'ladimi hamisha insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug'lashga intiladi.U yozgan qissa va hikoyalari barchamizning ko'nglimizdan joy olgan

O'lmas Umarbekov "Qizimga maktublar" kitobidan

Bu dunyoga kelganlarning, albatta, ketmog'i bor. Kimdir bir kun oldin, kimdir bir kun keyin... Ketadi-yu, qaytmaydi. Mangu dunyo abadiy uni o'z quchog'iga oladi.

Ketmog'i yaqin qolganini kishi sezganda cho'chimaydi, ammo turli o'ylar qurshoviga tushadi, kechgan, kechirganlarini eslaydi, olis, yaqin odamlar ko'z oldidan o'tadi.

Men bilan ham shunday bo'ldi. Kasalxonada yotarkanman, vaqtim, irodam yetganicha, ko'nglim ko'targanicha o'ylarga, xotiralarga berilib ketib, shularni yozdim.

Shunday iste'dod egalari borki, tengdoshlari va zamondoshlarining hurmat-ye'tiborini qozonish baxtiga muyassar bo'ladilar. Buning ustiga o'z zamondosh ustozlari e'zozidan , bahra topadilar. Ijoddagi bunday holat faqat o'sha iste'dodning baxtigina bo'lib qolmay, balki u mansub bo'lgan adabiyotning ham omadi, ravnaqidan bir dalolatdir. Bizning adabiyotimiz baxtiga bunday chinakam iste'dod sohiblari anchagina.

O'lmas Umarbekov ham ana shunday iste'dodlar orasidan o'ziga munosib o'rin egallagan, hozirjavob adiblar sirasiga kirgan.

Uning tarjimai holi ham o'z tengdoshlariniki kabi oddiy.

U 1934 yili Toshkentda tug'ilgan. O'rta maktabni muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent Davlat dorilfununining filologiya fakultetiga kirib, 1956 yilda uni a'lo baholarga bitirdi.

O'lmas Umarbekov 1992 yili O'zbekiston xalq yozuvchisi .

1984 yil O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi .

1956 yil O'rta Osiyo universitetining filol. fakultetini tugatgan .

1956-1971 yillar Respublika televideniye va radioeshittirish davlat qo'mitasida muharrir, bosh muharrir ,

1971-74 yillar O'zbekiston K.P MKda sektor mudiri ,

1971-81 yillar "O'zbekfilm" kinostudiyasi direktori ,

1982-86 yillar O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirining birinchi o‘rinbosari ,1987-89 yillar vaziri ,

1985-89 yillar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi ,

1989-91 yillar O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari .

1958 yil ilk kitobi — "Hikoyalar"  
.1960 "Xatingni kutaman", "Yurak so‘zlari" ;  
1961 "Boboyong‘oq" ,1962 "Yulduzlar",  
"Menga ishonmaysanmi?" , 1964 "Hayot abadiy" , 1966 "Charos" , 1968 "Ko‘prik" ,  
1972 "Bolgar qo‘shiqlari", "Oltin yaproqlar" ,  
"Qiyomat qarz" kabi hikoyalarida kishilarning ma’naviy axloqiy go‘zalligini tasvirlashga, insonning jamiyat va tabiat oldidagi burchini, mas’uliyatini ko‘rsatishga alohida e’tibor bergan. 1972 "Bolgar qo‘shiqlari" turkum hikoyalari ham ixchamligi, drammatizmga boyligi, she’riy ritmik xususiyatlari bilan ajralib turadi. U.ning 1963 "Sevgilim —

sevgilim" ,1965 "Kimning tashvishi yo‘q" ,  
1972 "Urush farzandi" , 1973"Yoz yomg‘iri" ,  
1974"Oq qaldirg‘och" va boshqa qissalari  
janriy rangbarangligi, qahramonlar ruhiy  
olamining teranligi, badiiy tasvir usullarining  
takrorlanmasligi bilan diqqatga sazovor.1970  
"Odam bo‘lish qiyin" va 1994"Fotima va  
Zuhra" romanlarida yoshlar, kishilarning  
xulq-atvorida ko‘ringan salbiy jihatlarni  
tasvirlash orkali sovet davri ma‘naviyatidagi  
kamchiliklar haqqoniy ochib berilgan.

Umarbekov ijodida dramaturgiya muhim  
o‘rinni egallaydi. 70-yillarda o‘z iste‘dodini  
teatr san‘ati sohasida sinab,1971 "Oqar  
suvlar" , 1972"Sud", 1972 "Yoshlik dengizi" ,  
1974 "Komissiya" singari pyesalarni yozgan.

Umarbekov 80 yillarda "O‘z arizasiga ko‘ra",  
"Kuzning birinchi kuni", "Qiyomat qarz",  
"Assalom, quyosh" singari yetuk sahna  
asarlarini yaratdi. Ayniqsa, mashhur teatr  
artisti Sh.Burhonov ijrosidagi Sulaymon ota

obrazi tufayli U. pyesasi asosida sahnalashtirilgan "Qiyomat qarz" spektakli tomoshabinlar o'rtasida katta shuhrat qozondi. Umarbekov Hamza nomidagi teatr (x.03. O'zbek Milliy akademik drama teatri)da sahnalashtirilgan bu va boshqa pyesalari bilan shu davr o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdi. Umarbekov "Qizimga maktublar" ("Mangu hayot bo'sag'asida") deb nomlangan so'nggi publitsistik asarida hayotga, o'tkinchi umrga chuqur falsafiy nazar tashlovchi, o'zining va o'zgalarning hayotiy tajribasidan yuksak xulosalar chiqaruvchi yozuvchi darajasiga ko'tarilganini namoyish etgan."Yoz yomg'iri" qissasi esa detektiv janrga oid hisoblanadi. Umrining so'nggi yillarida yozgan 1987"Tuhmat" , 1991"Oqsoqol" , 1992 "O'zing uchun o'l yetim" , tugallanmagan) dramalari ham e'tiborga loyiq.

Shuningdek, «Ikki soldat haqida qissa», «Radi drugix», «Vstrecha u visokix snegov» kabi kinofilmlar uchun ssenariylar yozdi. 1971 «Odam bo'lish qiyin» romani respublika komsomol mukofotiga, 1977 «Ikki soldat haqida qissa» 1984 Hamza nomidagi Respublika Davlat sovriniga, «Damir Usmonovning ikki bahori» qissasi esa N. Ostrovskiy nomidagi Butunittifoq adabiy mukofotiga sazovor bo'ldi. Uning tug'ilganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi faxriy unvoni berildi. Va nihoyat, 1992 yilda «O'zbekiston xalq yozuvchisi» degan yuksak sharafga ega bo'ldi.

Hayotning botiniy qatlamlarini chuqur o'rganish va taxlil etish, inson taqdirida ro'y bergan ziddiyat va holatlarni, belgilarni umumlashtirish, badiiy tafakkur tarozisiga qo'yish, lirizmga moyillik, inson xarakterini uning ruhiy holati, his-tuyg'ulari orqali ochib

berish U.ning ijodiy uslubiga xos xususiyatlardir. Asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

U qaysi jabhada, nima ishda ishlamasin, ijodning qaysi turida, qaysi mavzuida asar yaratmasin, hamisha o'z eli, yurti g'ami bilan yashadi. Ular yelkasidagi turmush yukini yengillashtirishga intildi. Ayniqsa, badiiy asarlarida xoh u hikoya, xoh qissa yoki roman bo'ladimi, xoh sahna asari bo'ladimi, hamma-hammasida insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug'lashga intilib keldi, xalq yozuvchisi darajasiga ko'tarildi. Bu har bir ijodkor uchun katta baxt, hayot va ijod oldidagi maqsada hamdir. O'lmas Umarbekov ham shunday baxt qushi qo'nganlardan biridir.

O'lmas Umarbekov og'ir xastalikdan so'ng, 1994-yil 10-noyabrda 60 yoshida hayotdan ko'z yumdi.



Adib dunyodan oʻtganidan deyarli chorak asr vaqt oʻtgach, Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham yozuvchining mehnatini yana bir bor eʼtirof etdi: «Men Oʻlmas akani yaxshi tanirdim, u ajoyib inson edi», — dedi va «Fidokorona mehnatlari uchun» ordeni bilan taqdirladi. Oʻsha lahzalarda yuragimda ikki tuygʻu bor edi: birinchisi, adibning oʻzi tirik boʻlsa-yu, mehnatining eʼtirofidan rohatlansa, ikkinchisi, hatto oʻtganlarning ham mehnati ulugʻlanadigan yurtda yashayotganimizga behisob shukronalar edi! Vafotidan keyin “Fotima va Zuhra” romani nashr etildi va Muqimiy nomidagi

O‘zbekiston davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirildi, roman asosida badiiy film ham yaratildi. Toshkent shahridagi ko‘chalardan biriga adib nomi berildi. Uch jildlik “Tanlangan asarlar”i nashr etildi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1.Muxtorov A.Davra suhbatlari/A.Muxtorov// sharq yulduzi.-1986.- № 11.

2.Mirzaliyev S. Iste’dodning kamoli. /S.Mirzaliyev// Sharq yulduzi.-1984.-№ 1.

3.Normamatov U.Yetuklik maqalasi. 1982 [www.Ziyouz](http://www.Ziyouz.com) com kutubxonasi.

4.Umarbekov U.Tanlangan asarlar hikoyalar.1 jild. Toshkent: Sharq,2000.-448 b.

5.O‘lmas Umarbekov.Tanlangan asarlari. 1-jild. [www. ziyouz. com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

6.O‘lmas Umarbekov. Oynning oltin o‘rog‘i, /O‘.Umarbekov; To‘plab, nashrga tayyorlovchi: L.Igamov. 3-nashr. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2020.-192 b.

7. Умарбеков, Ўлмас. Одам бўлиш қийин: [роман] /Ўлмас Умарбеков. Тошкент: Nurafshon business нашриёти, 2020.-224 б.

8. Умарбеков, Ўлмас. Қиёмат қарз: [роман]/Ўлмас Умарбеков. Тошкент: Nurafshon business нашриёти, 2021.-272 б.

9. Умарбеков, Ўлмас.

Ер ёнганда: [Ҳикоя].- Тошкент: Ёзувчи, 1993.-32 б.

10. Умарбеков, Ўлмас. Ёз ёиғири: [қисса]. Ўлмас Умарбеков. Тошкент: Адабиёт учқунлари. 2018.-208 б.

11. Матёқуб Саодат қизи Сен ҳеч нарсанинг кераги йўқ, на олтину кумуш, на бойлик./ С, Матёқуб қизи. // Adolat.-2022 .-22 апр.

Tuzuvchi axborot-bibliografiya xizmati  
rahbari : R. Komilova